

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN BALIQLAR BIOLOGIYASI,  
ZOOGEOGRAFIYASI VA BALIQ OVLASH FANIDAN MALAKA TEST  
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN BALIQLAR BIOLOGIYASI, ZOOGEOGRAFIYASI VA BALIQ OVLASH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Baliqlar biologiyasi, zoogeografiyasi va baliq ovlash fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Baliqlar biologiyasi, zoogeografiyasi va baliq ovlash**

1. Baliqlar biologiyasi, tuzilishi va ko‘payishi haqida ma’lumotlar;
2. Baliqlarning tabiiy ozuqa bazalari haqida;
3. Baliqlarning tarqalishi haqida;
4. Respublikamizda baliqlarni ovlash haqida;
5. O‘zbekiston sharoitida baliq yetishtirish istiqbollari;
6. Suv haroratiga bo‘lgan talabiga ko‘ra baliqlarning guruhlarini;
7. Suv havzalarida nazorat ovlarini o‘tkazish.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Baliqlar biologiyasi, tuzilishi va ko'payishi haqida ma'lumotlar	Baliqlar biologiyasini bilishi, baliqlarning tuzilishi va ko'payishi haqida umumiy ma'lumotlarni bilishi, rivojlanishi, lichinkalarning ochib chiqishi, chavoq va voyaga yetgan baliqlarni ikralari va urug'larini ajrata olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.	6 ta
2	Baliqlarning tabiiy ozuqa bazalari haqida	Baliqlarning tabiiy ozuqa bazalari, oziqlanish haqida mukammal bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	10 ta
3	Baliqlarning tarqalishi haqida	Baliqlarning turli suv havzalarda tarqalishi turlarni bir biridan ajrata olishi va ishlab chiqarishda foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.	5 ta
4	Respublikamizda baliqlarni ovlash haqida	Respublikamizda baliqlarni ovlash haqida ko'nikmalariga ega bo'ladi.	5 ta
5	O'zbekiston sharoitida baliq yetishtirish istiqbollari	O'zbekiston sharoitida baliq yetishtirish istiqbollari, baliqlarni akvakulturaning turli tizimlarida yetishtirish haqida umumiy tasavvurga ega bo'ladi.	4 ta
6	Suv haroratiga bo'lgan talabiga ko'ra baliqlarning guruhlari	Respublikamizning hududlarida baliq yetishtirish haqida umumiy ma'lumotlarni bilish, ularni yetishtirish usullari va guruhlari bo'yicha keng qamrovli tushunchalarga ega bo'ladi.	6 ta
7	Suv havzalarida nazorat ovlarini o'tkazish	Suv havzalarida baliqlarni ovlashning nazorat ovlarini o'tkazish haqida umumiy ma'lumot bera oladi.	4 ta

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %

3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %
----	------------------------	---	------

### VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

### VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me‘yori belgilanadi.

### VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

### IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta’limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo‘shimcha 15 daqiqa vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

### X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Аманов А.А. Экология рыб водоемов юга Узбекистана и сопредельных республик. – Ташкент: Фан, 1985

2. Дарлингтон Ф. Зоогеография. – М.: Прогресс, 1966.

3. Суворов Е.К. Основы ихтиологии. – М.: Советская наука. 1948.
4. Yuldashov M.A., Kamilov B.G., Qaxramonov B.A., Tojibayev M.S. Ixtiologiya. Darslik. - Toshkent, 2022.
5. Yuldashov M.A., Kamilov B.G., Baliqlar ekologiyasi va atrof muhit muhofazasi. Darslik. - Toshkent, 2023.

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*